

YOSHLAR HARAKATLARINI RIVOJLANTIRISH: INTELLEKTUAL, IJTIMOYIY YO‘NALTIRILGAN LOYIHALARNI QO‘LLAB- QUVVATLASH

Marifjonov Abrorjon

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining
(PhD) mustaqil tadqiqotchisi*

Annotasiya: *Intellektual loyihalar zamonaviy jamiyatda katta ahamiyatga ega, chunki ular innovatsiyalarni rivojlantirish, bilimlarni tarqatish va yangi texnologiyalarni joriy etishda muhim rol o‘ynaydi. Bunday loyihalar orqali quyidagi ijobiy ta’sirlar ko‘rinadi:*

1. *Innovatsiyalarni rivojlantirish: Intellektual loyihalar yangi g‘oyalar, texnologiyalar va mahsulotlarni yaratishga yordam beradi, bu esa iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni ta’minlaydi.*

2. *Bilim va tajriba almashinuvi: Intellektual loyihalar ko‘pincha ilmiy va tadqiqot ishlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular global miqyosda bilim va tajribani almashish imkonini yaratadi.*

3. *Ta’lim va malaka oshirish: Ushbu loyihalar odamlarning bilimlarini kengaytiradi, yangi ko‘nikmalarni o‘rganishga imkon beradi, bu esa jamiyatning intellektual salohiyatini oshiradi.*

4. *Texnologik taraqqiyot: Intellektual loyihalar zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish va ularni amaliyotga tadbiq etishda muhim omil bo‘lib, yangi ish o‘rinlari yaratadi va jamiyatni raqamli transformatsiyaga tayyorlaydi.*

5. *Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish: Intellektual loyihalar ijtimoiy muammolarni hal qilishda, yangi xizmatlar va mahsulotlar yaratishda, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda yordam beradi.*

*Shuning uchun intellektual loyihalar jamiyatning rivojlanishi, iqtisodiyotning mustahkamlanishi va umumiy farovonlikni oshirish uchun zarurdir.*³⁹

Kalit so‘zlar: *intellektual, Zakovat, Kreativ xakatonlar, Uzchess, podcast, quiz, wikistipendiya, marafon, “Ustoz AI”, Karyera markazi, “World cup”, PR, HR, Videomontaj, SAT, Mobilografiya, No-code dasturlash*

Yosh avlod – jamiyatni harakatlantiruvchi asosiy kuch ekan, bu biz uchun ham ulkan imkoniyat, ham katta mas’uliyatdir. Intellektual va ijtimoiy yo‘naltirilgan, yoshlarni o‘z ortidan ergashtira oladigan qiziqarli loyihalar va tashabbuslar esa ana shu imkoniyatni to‘liq ishga solishga yordam beradi.

O‘zbekistonda yoshlarning intellektual rivojlanishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar 1990-2010 yillar orasida tug‘ilgan hozirgi yoshlar qatlami texnologiyalarning hayotimizga

39

Jumayev, T., & Shamsiev, N. (2020). *Yoshlar harakatlarini rivojlantirish va ularning ijtimoiy faolligi (Development of Youth Movements and Their Social Activity)*. Tashkent: O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi nashriyoti.

shiddat bilan kirib kelishiga, turg‘un holatdagi ijtimoiy munosabatlarni safarbar qilishga sabab bo‘lmoqda.

Aholisi ko‘p bo‘lgan va uning katta qismini yoshlar tashkil qiladigan O‘zbekistonda ham yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Buni Davlat rahbari tomonidan qabul qilingan ko‘plab qaror va farmonlar, turli uchrashuvlar va chiqishlarida doimiy ravishda yoshlar masalasi Prezidentning diqqat-e’tiborida ekanligidan ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 12 avgustda qabul qilingan. Senat tomonidan 2016 yil 24 avgustda ma’qullangan. Ushbu Qonunning maqsadi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Respublikamizda yoshlarga oid sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish va yangi yuksak sifat bosqichiga ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O‘zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati negizida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun – 30 iyun sanasi mamlakatimizda “Yoshlar kuni” sifatida nishonlanadi. Qayd etish joizki, ushbu Farmon bilan boshlangan islohotlar muvaffaqiyatli chiqib, yangi tizim o‘z ortidan millionlab yoshlarni birlashtirgan yangicha harakatni yuzaga keltirdi. Zamonaviy, yoshlarni qiziqтира oladigan tashabbuslar, loyihalar ro‘yobga chiqarila boshlandi. Shuningdek, joriy yilda O‘zbekiston bolalar tashkilotining tashkil etilganligi ham mazkur yo‘nalishda yoshlar o‘rtasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.⁴⁰

O‘zbekistonda eng ommalashgan yoshlar harakatini qo‘llab-quvvatlashga doir tashabbuslar “Zakovat” loyihasi avvallari yetarlicha qo‘llab-quvvatlash va ko‘mak bo‘lmaganligi sababli tarqoq holda faoliyat ko‘rsatgan ushbu intellektual klub Davlat rahbarining alohida e’tibori tufayli qisqa vaqt ichida butun respublika miqyosida yuz minglab yoshlarni birlashtirgan harakatga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 yanvardagi “Zakovat” intellektual o‘yinini aholi o‘rtasida ommaviy-ma’rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o‘yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.⁴¹

Birgina maktab ta’limi tizimida ushbu intellektual klub 9 ming maktab va 60 mingdan ziyod o‘quvchini qamrab olgan. Hozirga kelib Zakovatning sport versiyasi bo‘yicha har yili respublika miqyosida 50 dan ziyod turnirlar o‘tkaziladi. Ushbu loyiha doirasida tibbiyot,

⁴⁰ Xodjaye, S., & Gulomov, A. (2020). Yoshlarni intellektual rivojlantirish va ijtimoiy loyihalarga jalb qilish (Intellectual Development of Youth and Involvement in Social Projects). Tashkent: "Ilm-Ziyo" nashriyoti.

⁴¹ 12. Akramov, M., & Mirkasimov, R. (2018). Yoshlarni ijtimoiy loyihalarda ishtirokini oshirish (Increasing Youth Participation in Social Projects). Tashkent: "O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi" nashriyoti.

xalq ta’limi, huquqni muhofaza qilish va boshqa sohalar vakillari o‘rtasida professional turnirlar, Zakovat Quiz turniri, turli ijtimoiy masalalarni ko‘tarib chiquvchi “Diqqat, savol!” podkasti, Karyera markazi singari ko‘plab tadbirlar o‘tkazilmoqda. Klub vakillarining ma’lum qilishicha, yaqin vaqt ichida debatlar turniri, dunyoga taniqli ekspertlar, Nobel mukofoti sovrindorlari ishtirokida mahorat darslari, ma’ruzalar, Kreativ xakatonlar o‘tkazish va boshqa ko‘plab tashabbuslar rejalashtirilmoqda.

Har yili “Zakovat” intellektul harakati tomonidan shaxmat sohasida yangi yulduzlarni kashf etish, yosh shaxmatchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Zakovat-Gambit” turnirlari tashkil qilinmoqda. Ushbu turnir doirasida yosh shaxmatchilarimiz uchun shaxmat bo‘yicha dunyo yulduzlari tomonidan master-klasslar o‘tkazilmoqda.

“Ibrat farzandlari” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil qilingan “Ibrat farzandlari” loyihasi hozirgi kunda yoshlarning bepul til o‘rganishi uchun ajoyib imkoniyatdir. 2022 yil noyabr oyida tashkil etilgan loyiha xorijiy tillarni bepul, sodda, tizimli va kreativ usulda o‘rgatishni maqsad qilgan.

“Ibrat farzandlari” loyihasi O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib xorijlik mehmonlar uchun o‘zbek tili va grammatikasini o‘rgatishni yo‘lga qo‘ygan hisoblanadi. Bugungi kunda, loyiha doirasida 22 ta xorijiy til, o‘zbek tili, savodxonlik darslari, imo-ishora tili o‘rgatib kelinmoqda. Loyiha qisqa vaqt ichida YouTube platformasi sahifasida 582 mingdan ortiq obunachiga ega bo‘ldi. Mazkur platformada 2400 dan ortiq videolar joylangan bo‘lib, ular 31 million marta tomosha qilingan.

“Ibrat Academy” mobil ilovasida esa 1 million 300 mingga yaqin kishi til o‘rganmoqda. Ulardan 83 180 nafari til sertifikatlarini qo‘lga kiritgan. Jumladan, mazkur ilovaga bugungi kungacha 2075 ta video darslar, 2107 ta testlar joylashtirilgan.

Hozirgi kunda “Ibrat farzandlari” tarkibida chet tillarni o‘rgatuvchi “Ibrat Camp”, “Ibrat master class”, “Ibrat quiz”, “Notiqlik mahorati” kabi loyihalar ham tashkil qilib kelinmoqda.

“Mutolaa” loyihasi doirasida 1200 dan ortiq kitoblar (badiiy asar, hikoya, ertak va ilmiy ommabop asarlar)ning audio va elektron variantlari tayyorlanib, mobil ilovaga joylashtirildi. Mazkur loyiha aholi, ayniqsa yoshlar orasida ommalashib, bugungi kunga qadar 400 mingdan ortiq kitobxon ushbu mobil ilovadan foydalanmoqda.

Loyiha doirasida kitobxonlik sohasida yangi yo‘nalish hisoblangan kino-kitob yaratish bo‘yicha dastlabki ish sifatida “Qo‘rqma” kitobi uchun badiiy va hujjatli film suratga olindi. Ushbu badiiy filmni xorijiy davlatlarda ham ommalashtirish maqsadida mazkur asar 4 ta xorijiy tillarga (ingliz, rus, turk va ispan) tarjima qilindi.

Shuningdek, mazkur yo‘nalish bo‘yicha “Kichkina Shahzoda” va “Dahshat” asarlariga badiiy va hujjatli filmlar suratga olindi. Loyiha doirasida 2024-yil yakuniga qadar 1 milliondan ortiq kittobxonlarni kashf qilish rejalashtirilgan.

“WikiStipendiya” marafoni loyihadan ko‘zlangan asosiy maqsad Internet tarmog‘ida o‘zbek tilidagi ma’lumotlar bazasini rivojlantirish, O‘zbekiston haqidagi chet tilidagi ma’lumotlar salmog‘ini oshirishdan iborat.

2022 yilning may oyidan o‘z faoliyatini amalga oshirib kelayotgan “WikiStipendiya” marafoni auditoriyasining asosini talabalar hamda 14-35 yoshdagilar tashkil qiladi. Ushbu marafonga start berilayotgan vaqtda uning oldiga bir qator jiddiy vazifalar qo‘yilgan. Jumladan:

- Yoshlar o‘rtasida vikipediya ma’lumot joylash madaniyatini shakllantirish;
- O‘zbekcha vikipediya ma’lumotlar soni va sifatini oshirishga erishish;
- Internet tarmog‘ida O‘zbekiston, uning tarixi haqidagi ma’lumotlarni ko‘paytirish;
- O‘zbek tilining jahon sahnasidagi nufuzini oshirish.

Ushbu loyihani bir nechta platformalar orqali o‘z faoliyatini olib bormoqda:

1. “Vikipediya” sayti;
2. “WikiStipendiya”ning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari;
3. “O‘zbekcha Vikipediya” Youtube kanali.
4. “WikiStipendiya” marafonining Vikipediya maxsus sahifasi.

“WikiStipendiya” marafoni tashabbuskorlari hozirgi bosqichda o‘z oldilariga quyidagi maqsadlarni qo‘ygan:

- 1) O‘zbekcha vikipediya maqolalar sonini 400 mingga yetkazish;
- 2) Jahon vikireytingida kuchli 30talikka kirish;
- 3) Vikipediya ma’lumot kiritish va ma’lumot olishni aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida yanada ommalashtirish.

“UzChess” Yoshlar ishlari agentligi, “Loyihalar boshqaruvi markazi” nodavlat notijorat tashkiloti bilan birgalikda mamlakatimizda shaxmatni aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish va uni ommaviy sport turiga aylantirish, o‘ziga kelayotgan yosh avlodning intellektual va madaniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida “UzChess” loyihasini yo‘lga qo‘ydi. “UzChess” loyihasi doirasida shaxmatni “nol”dan boshlab bepul, tez va oson o‘rgatishga qaratilgan Youtube platformasidagi “Uzchess” sahifasida 119 ta videodarslar, 187 ta qisqa roliklar, 49 ta video tahlillar, 23 ta intervyular, 397 ta jonli efirlar joylandi. Sahifaga joylangan materiallar 5 799 840 marta tomosha qilindi. Bugungi kunda sahifa obunachilari 32 950 nafarni tashkil etmoqda.

“UzChess” loyihasining Youtube sahifasi orqali “Women’s chess championship”, “XVII jahon chempioni Rustam Qosimjonov”, Georgiy Agzamov xotirasiga bag‘ishlangan “Toshkent open”, “Sohibqiron kubogi”, “Norway chess 2023”, “Global chess league”, “World cup 2023 Azerbaijan”, “Julius Baer generation cup”, “Tata steel chess India”, 2023-yilgi “FIDE Jahon chempionati”, “Qatar Masters open 2023”, “FIDE Grand Swiss 2023”, “Title Tuesday”, “Arena Kings”, “El Llobregat open chess”, “Champions chess tour”, “Sunway Sitges” xalqaro turnirlari jonli efirda uzatib borildi.

“Ustoz AI” “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2024 yil 21 fevraldagi PF – 37-son farmoni bilan Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ushbu loyiha amalga oshirilmoqda. Loyihaning maqsadi – Yoshlarni zamonaviy kasblarni bepul o‘rgatuvchi maxsus platforma yaratish, yoshlarga 40 dan ortiq zamonaviy kasblarni onlayn o‘rgatish va yoshlarni bo‘sh

vaqtlarini mazmunli tashkil etish, tashqi mehnat migratsiyasini 10%-30% ga kamaytirish va ularning bandligi ta'minlashdan iborat.

“Ustoz AI” loyihasi doirasida hozirgi kunga qadar 7 dan ortiq zamonaviy kasblar va fanlardan (PR, HR, Videomontaj, SAT, Mobilografiya, No-code dasturlash va Biologiya) 200 dan ortiq videodarsliklari 4K formatda tayyorlanib, YouTube platformasiga joylashtirildi. Mazkur loyiha aholi, ayniqsa yoshlar orasida ommalashib bormoqda va bugungi kunga qadar 43 mingdan ortiq yoshlar videodarsliklar orqali zamonaviy kasblar va fanlarni bepul o'rganmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar tashabbusi bilan yoki ular ishtirokidagi harakatlar o'z ortidan ko'plab insonlarni ergashtira olishi va jamiyat hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatishi sababli ham o'ta muhimdir. Agar e'tibor qaratadigan bo'lsak, so'nggi yillarda mamlakatimizda yuz bergan ko'plab yangiliklar, transformatsiya jarayonlari aynan ilg'or yoshlarning jipslashishi, yangilikni ilgari surishi tufayli amalga oshmoqda. Biznes jarayonlariga axborot texnologiyalarining faol kirib kelishi, elektron to'lovlar va tijoratning ommalashishi, yetkazib berish xizmati, mutolaa madaniyatiga e'tibor, ekologiya masalalarining kun tartibiga chiqishi, chet tillari va ITga qiziqishning keskin oshishi kabilarni bunga misol sifatida keltirish mumkin.⁴² Aynan shu sababdan ham, yoshlar harakatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash harakatchan va intiluvchan yoshlarimizning salohiyatidan mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida maksimal darajada foydalanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I.RASMIY ADABIYOTLAR:

1.1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2017.

1.2.O'zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari. — T.: O'zbekiston, 2007. II.

II.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SH.MIRZIYOYEV ASARLARI VA MA'RUZALARI:

2.1.Mirziyoyev. Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr) — T.: “O'zbekiston” NMIU, 2016.

2.2. Mirziyoyev. Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq) — T.: “O'zbekiston” NMIU, 2016.

III. O'ZBEK TILIDAGI ADABIYOTLAR:

⁴² Toshpulatov, A., & Mirkasimov, A. (2021). Yoshlar siyosati va ijtimoiy innovatsiyalar (Youth Policy and Social Innovations). Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari bo'yicha davlat qo'mitasi.

3.1. Jumayev, T., & Shamsiev, N. (2020). Yoshlar harakatlarini rivojlantirish va ularning ijtimoiy faolligi (Development of Youth Movements and Their Social Activity). Tashkent: O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi nashriyoti.

3.2. Islomov, S., & Akramov, A. (2019). Intelektual va ijtimoiy loyihalarni yoshlar o'rtasida rivojlantirish (Development of Intellectual and Social Projects Among Youth). Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

3.3. Toshpulatov, A., & Mirkasimov, A. (2021). Yoshlar siyosati va ijtimoiy innovatsiyalar (Youth Policy and Social Innovations). Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari bo'yicha davlat qo'mitasi.

3.4. Xodjayev, S., & G'ulomov, A. (2020). Yoshlarni intellektual rivojlantirish va ijtimoiy loyihalarga jalb qilish (Intellectual Development of Youth and Involvement in Social Projects). Tashkent: "Ilm-Ziyo" nashriyoti.

VI. Web resurslar:

4.1. [http://www. Ziyouz. Som](http://www.Ziyouz.Som).

4.2. <http://www. Wikipedia. org>.